



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

- Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
12. Навоий А. Хазойин ул-маоний. Учинчи девон. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 740 б.
13. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Тошкент: Фан, 1979.
14. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 84-б.
15. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърятига татаббу тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида). – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 148 б.
16. Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 239 б.
17. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб. – Тошкент: ЎСЭ, 2008.
18. Шодиев Э. Навоий татаббуларига оид баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2-сон, 7-13 б.

ADABIY TA'SIR VA POETIK TAFAKKURNING YANGILANISHI

Adizova Iqboloy Istamovna

*Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU,
ataullo98@mail.ru*

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/NKKM5154

Abstrakt. Mazkur maqola, “Majolis un-nafois” asosida, Navoiy va Husayniyning oʻzaro adabiy taʼsiri, adabiy hamkorlik va maslakdoshlik maqomini yoritishga bagʻishlangan. Doʻstona munosabatlarning ijodiy shakllanish va takomillashuvdagi ahamiyati belgilangan. Ijodkorlarning tafakkur va ifoda uygʻunligi hamda oʻziga xosligi talqin etilgan. Mahorat qirralari aniqlangan. Qoʻyilgan masala ularning nazira hamda tatabbulari orqali ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: nazira, irfoniylik, tasavvuf, tarjeh, anʼana va yangilanish, adabiy jarayon, raviy, qofiya, badiiy sanʼatlar.

LITERARY INFLUENCE AND RENEWAL OF POETICAL THOUGHT

Abstract. This article examines the mutual literary influence between Alisher Navoi and Husayni, as reflected in Navoi's Majolis un-nafois, with a focus on their literary cooperation and friendship. The study highlights the significance of their personal and professional relationship in fostering their creative growth and enhancing their works. It explores the harmony in thought and expression between the two poets, while also emphasizing their individual originality. The article identifies the limits of mastery in their respective literary contributions and explores the key questions raised through their observations and mutual influence.

Keywords: nazira, irfan, tasawwuf, tarjeh, tradition and renewal, literary process, rawi, qafiya, artistic arts.

“Majolis un-nafois” XV asr adabiy jarayonining koʻzgusidir. Unda Navoiy, davrining 459 allomasi qatorida, Husayniy ijodiga ham alohida eʼtibor qaratgan. Asar tarkibidagi sakkiz majlisdan soʻnggisi toʻliqligicha unga bagʻishlangan. Asarning yaratilish maqsadidan kelib chiqib, majlisda, asosan, Husayniyning ijodkorligi bilan bogʻliq masalalar yoritiladi. Muallif qoʻyilgan muammoni keng qamrovda, adabiyotshunos olim sifatida nazardan oʻtkazadi. Qadr don doʻsti ijodiy faoliyatining oʻziga xos, noyob xususiyatlarini, betakror gʻaroyibliklarini ochib beradi.

Navoiy “Majolis un-nafois”da Husayniy gʻazallaridan olingan 166 baytni tahlil etadi. Ular asosida Husayniy sheʼriyatining fasohatini yoritib beradi. Uning devon tartib bergani, asarlari koʻpligi va mahorat bilan yozilgani haqida soʻzlar ekan, har gʻazalidan bir matlaʼ keltirganini taʼkidlaydi: *“Ul hazratning xoʻb ashʼori va margʻub abyoti bagʻoyat koʻptur va devon ham murattab boʻlubtur. Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har gʻazaldin bir matlaʼ yozildi [1: 1997, 174].* “Majolis un-nafois”ning 1498 yilda yakunlanganini hisobga olsak, shu davrgacha Husayniy 166 ta gʻazal yaratgan ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki asarda Navoiy arab alifbosining 28 harfini va ularga mos tarzda, gʻazal baytlarini tartib bilan keltiradi.

Husayniy asarlari kiritilgan qoʻlyozmalarda gʻazallari turli miqdorda jamlangan. Ayrim bayozlarda 1-2 ta gʻazal bilan cheklaniladi. Eng koʻp miqdorda 126, 145, 151 tagacha gʻazallarni uchratamiz. Husayniy devoni shu paytgacha 4 marta xorijda chop etilgan [1926 йил, Бокуда; 1946 йил Истанбулда; 1968 йил Афғонистонда; 2012 йил Истанбулда]. Boku nashriga 128 ta, Afgʻoniston nashriga esa 204 ta gʻazal kiritilgan. Oʻzbekistonda esa 6 marta nashr etilgan [1928-yil Fitrat tomonidan “Oʻzbek adabiyoti namunalari”da; 1941-yil “Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi; Hodi Zarif tomonidan tayyorlangan “Navoiy zamondoshlari”da; 1959 yil “Oʻzbek adabiyoti” xrestomatiyasida; 1968 va 1991 yillar S. Gʻaniyeva tomonidan; 1995-yil A.Erkinov tomonidan nashr etildi; 2016-yil H.Joʻrayeva tomonidan yigʻma-qiyosiy matn tayyorlandi]. Mazkur nashrlarda 31, 39, 56, 102, 133, 202 ta gʻazal mavjudligini kuzatamiz. Nashrlarda asosan 4 ta – gʻazal, muxammas, ruboiy va fard janridagi asarlar kiritilgan. Hozirgacha ilmga maʼlum asarlarining eng koʻpi Afgʻoniston nashrida (204 gʻazal, 2 muxammas, 6 ruboiy, 6 fard, 1 forsiy gʻazal, 1 forsiy ruboiy). Erkinov nashri ham shunga asoslangan. Unda 202 ta gʻazal bor. Yigʻma-qiyosiy [Девони Султон Ҳусайн Бойқаро, 2016] matnda ham 202 ta gʻazal, 2 muxammas, 7 ruboiy va 7 fard mavjud.

Sharq mumtoz adabiyoti anʼanaviy adabiyot. Uning muhtashamligi ham shunda. Chunki ildizdan uzilmay turib, yangilik yaratish mahorat talab etadi. Ulugʻ shoirlarimizning asarlaridagi kashfiyotlar ana shu anʼanaviylik zaminida namoyon boʻlgani bilan ham qadrlidir. Ular maʼno, obraz, badiiy tasvir va soʻzlarning jilolantirilishi vositasida yuzaga chiqadi. Bu borada, ayniqsa, taxmis, tasdis, nazira, tatabbuʼ, tazminlarning ahamiyati katta. Navoiy “Majolis un-nafois”da Husayniy mahoratini belgilar ekan, ijodining quyidagi turli qirralarini aniqlash yoʻlidan boradi:

1. Gʻazallarining mazmun va maʼno qamrovi.
2. Nazirnavislik va tatabbunavislik mahorati.
3. Asarlaridagi qofiya va radiflarning qoʻllanilish tizimi.
4. Badiiy sanʼatlardan foydalanish uslubi.
5. Turkiy sheʼriyatga olib kirgan yangiliklari.
6. Adabiy jarayonga ijodiy munosabati.

Navoiy Husayniy ijodini yuqoridagi tasnif asosida baholab, barcha yutuqlarini dalillab beradi.

Uning koʻplab shoirlarga, jumladan, oʻzining ham bir nechta gʻazaliga naziralar bogʻlaganini taʼkidlaydi. Ulardan biri,

Tigʻ ila koʻksimni qilding zaxm, ey siymin badan,

Qoni turmaydur deb ul zaxm uzra kuydurdung tugan [1, 1997, 192],

bayti bilan boshlanuvchi gʻazaldir. U haqda Navoiy katta mehr bilan soʻzlaydi: *“Bu matlaʼ faqirning bir matlai muqobalasida tushubturkim, agar burunroq aytilmish*

bo'lsa erdi, faqir hargiz o'z matlaimni aytmag'ay erdim. Aytmish bo'lsam ham, bitmagay erdim" [1, 1997, 192].

Navoiy "mening" radifli g'azaliga javob tarzida yozilgan asarning ham yuksak mahorat bilan yaratilganini tan oladi: *"Bu faqirning bir g'azaliga bu g'azal javob voqe' bo'lubturkim, o'zum insof yuzidin mu'tarifmankim, andin yuz martaba ortuqroq tushubturkim:*

*Tushgali hajringda, ey sarvi gulandomim mening,
Ne ko'zumda uyqu bor, ne jonda oromim mening"* [1, 1997, 186].

Yana biri "ko'ngul" radifli g'azaliga bog'langan naziradir. Navoiy uni baholar ekan, o'zining davrda mashhur g'azalidan ham ustun qo'yib ta'riflaydi: *"Bu faqirning mashhur matlaig'akim, javob voqe' bo'lubtur, ammo yuz martaba ondin ravonroq va yaxshiroq voqe' bo'lubtur:*

*Chun junun zanjirig'a bo'ldum giriftor, ey ko'ngul,
Bo'lg'asen men telba holidin xabardor, ey ko'ngul"* [1, 1997, 189].

Navoiy "Majolis un-nafois"da Husayniy ijodiga obyektiv baho berish yo'lidan borganini his qilamiz. Bunday xulosaga kelishimizga asos beruvchi dalillarni asarda ko'plab uchratamiz. Jumladan, muallif,

*Hijronning o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorum, tarhin ul kul birla qil* [1, 1997, 189].

bayti haqida so'zlab, hayratlanarli voqeani eslaydi: *"Bu g'arib xayoldurkim, Sulton Sohibqironning xotirlarig'a kelibdur va nazm ahliga zohir qilib erdilarkim, ayt sunlar, barcha ayttilar. Ammo hech qaysi ul hazrat cha ayta olmadilar"* [1, 1997, 188].

Mumtoz adabiyotda hijron iztirobi turli obrazlar, rang-barang ifoda usullari va badiiy vositalar yordamida tasvirlanadi. Ammo Husayniy qo'llagan "kul" obrazi mazkur ruhiy holatni mukammal, chuqur va yangicha ifodalab bera oladi. Unda tashqi manzaradan tashqari, oshiq tuyg'ularining botiniy sarhadlari ham yoritiladi. Bu esa U haqdagi Navoiy fikrlari asosli ekanligini ko'rsatadi.

Kiprik mumtoz adabiyotda keng qamrovli ma'nolarni ifodalaydi. U majoziy va irfoniy mohiyatni yoritishga xizmat qiluvchi obraz. Husayniy mazkur an'anaviy obrazga o'ziga xos yondashuv orqali, go'zal va noyob mantiqni yuzaga chiqarishga erishadi:

*Kirpikimdin, ey ko'ngul, har dam qanotlar soz qil,
Hajr dashtidin visoli ko'yiga parvoz qil* [1, 1997, 189].

Ko'ringanidek, kiprikka bunday nuqtayi nazardan yondashish Husayniyning nodir badiiy xayolot olamidan dalolat beradi. Navoiy bejiz shoir do'stining "g'arib xayolot"iga e'tiborni qaratmaganini anglaymiz. Yuqoridagi baytlarning noyob topilma tarzida aytilgani, obrazlarga yangicha nuqtayi nazardan yondashilganidan ko'rinib turibdiki, Navoiyning bahosida zarracha ham mubolag'a yo'q.

"Majolis"da Husayniyning Hofiz Sheroziy, Yaqiniy, Lutfiy kabi ko'plab shoirlarning asarlariga naziralar bog'lagani haqida ham ma'lumotlar bor. Xususan, Lutfiy XV asr adabiyotida alohida o'rin tutgan. Uni barcha shoirlar, Navoiy ham o'ziga ijod yo'lida ustoz deb bilgan. Shoirlik iste'dodi tan olinib, buyuk ehtirom bilan unga "malik ul-kalom" maqomi berilgan.

Navoiy "Majolis"da Lutfiy ijodi bilan bog'liq ko'plab jarayonlarni oydinlashtirgan. Ayrim g'azallarining yaratilish tarixi haqida ma'lumot bergan. Asardan Husayniyning Lutfiy ijodiga munosabati, uning asarlariga bog'lagan naziralari, ijodiy takomilida ustozning tutgan o'rni borasida ham xulosalarga ega bo'lamiz. Ayniqsa, "ustina" radifli

g'azalning yaratilish tarixi davr adabiy jarayoni, ijodkorlarning o'zaro munosabati, adabiy ta'sir va ijodiy takomil masalalarini yoritishga xizmat qilgan. Navoiy ustози Lutfiy mahoratini yuksak baholagani holda, "ustina" g'azalining,

Ey qading to'biyi jannat xaddi gulgun ustina,

Ko'rmadi davron seningdek oy gardun ustina [Лутфий. 1965, 233] [1, 1965, 233], deb boshlanuvchi matla' bayti haqida ayrim tanqidiy mulohazalarini ham bayon etadi: "*Nechunkim, Mavlono yuzni jannatg'a tashbih qilibdur va ani to'bi ustiga e'tibor qilibdur va bu bag'oyat yiroqtur. Bovujud bu ikki misrai bir-biriga marbut emas*" [1, 1997, 198].

Husayniy ham ustozning betakror va noyob ijodini qadrlaydi. Unga ehtirom ramzi sifatida mazkur g'azalga nazira bog'laydi. Asarni qayta ishlaydi. Yanada takomillashtiradi. Navoiy nuqson sifatida ko'rsatgan matladagi holatlarga o'zgacha yondashadi:

Aytqoy, sarv uzra gul payvand qilmish bog'bon,

Kimki ko'rsa orazing, ul qaddi mavzun ustina [2, 2016, 131].

Husayniy tasvirni hayotga yaqinlashtiradi. Mahbuba qaddi va yuzini bog'bonning sarvga gulni payvand qilish holati bilan bog'laydi. Shoir mahorati shunda ko'rinadiki, u asarga bog'bon obrazini olib kirishi bilan uni ham hayotga yaqinlashtiradi, ham teran botiniy ma'no bag'ishlaydi. Bunda u mumtoz adabiyotning ramziylik xarakteridan foydalanib, bog'bon obrazining ramziy ma'nosini ham nazarda tutadi. Mahbubaning go'zalligini Azal yaratuvchi mahoratiga, uning qudrati mahsuli ekanligiga ishora qiladi. Husayniy Navoiy fikrini inobatga olib, Lutfiy qo'llagan obrazning yangi va mukammal talqinini yaratadi.

Lutfiy g'azalining maqta' bayti shoirning timsol qo'llashdagi o'ziga xosligini namoyon etadi:

Gar vatan Lutfiy ko'zunda tutmading, yo'qtur ajab,

Ev qo'pormog'liq erur dushvor Jayhun ustina [1, 1965, 233].

Hajr ko'yida oshiq ko'z yoshining Jayhun kabi daryo bo'lishi ma'lum tasvir. Ammo Lutfiy mahbubaning oshiq ko'zi mardumida makon tutmasligini Jayhun ustida vatan qurishning ilojsizligi bilan bog'laydi. Bu esa an'anaviy ifodaning yangilanishiga asos bo'ladi. Shoir tasvirida manzara kengayadi. Tasvir obyektining kengayishi o'z-o'zidan asar qahramonlarining ruhiy holati tasvirini ham teranlashtiradi.

Husayniy yaratgan maqta' bayt ham noyoblighi bilan ajralib turadi. Unda shoirning ijodiy laboratoriyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi:

Seli ashk ichra Husayniy chun ko'runmas istamang,

Kim ko'rungay tushsa bir xoshok Jayhun ustina [2, 2016, 131].

Lutfiy maqtasida oshiqning vaslga yetolmasligini hayotiy asos bilan dalillagan. Husayniy esa maqsadga erisholmaslikni mahbubaning oshiqni nazarga ilmasligi bilan bog'laydi. Lirik qahramon xokisor, nazarnogir. Uning, hatto xas-xashakchalik ham qadri yo'q. Jayhun ustiga tushgan xas ham ko'rinadi. Ammo oshiq nazardan chetda. U o'z maqomidan qanoatlanmaydi. Ko'rinadiki, Lutfiyning hayotiy zaminga asoslangan g'azali Husayniy qalamida yanada charxlanadi. Hayotiylik bilan parallel ravishda irfoniylar ma'nolarga ishoralar ham yetakchi mavqega ko'tarila boshlaydi.

Sharq mumtoz adabiyoti an'anaviy adabiyot. Unda barcha yangilik va taraqqiyot an'ana zamiridan o'sib chiqqan. Hatto turkiy adabiyotga xos qofiyalanish tizimi, qofiya uchun qo'llangan so'zlar ko'lamida ham an'anaviylikka amal qilingan. Qofiya asosini tashkil etuvchi asosiy – raviy harfining qo'llanishida ham o'ziga xos an'ana ustuvorlik qilgan. Noan'anaviy so'zlar yoki harflar tizimidan foydalanish ham ijodkorning o'ziga

xosligi va yangiligini belgilashga xizmat qilgan. Shu sababli ham Navoiy Husayniy mahoratini baholar ekan, turkiy adabiyotda she'r aytilmagan yoki kam aytilgan harflar qo'llanilgan qofiyalar tizimining olib kirilishini ham, shoirning yangiligi, ijoddagi kashfiyoti sifatida baholaganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, Navoiy "Sod" harfi bilan yakunlangan qofiya tizimi borasida quyidagicha so'zlaydi: *"bu harfda dag'i turkigo'y fasohatshiorlar varaq yuziga qalam surmaydurlar va hech nav' nazm arog'a kelturmaydurlar:*

*Ey ko'ngul, bo'lsang vafosiz dilrabolardin xalos,
Shukr qil, bo'lg'on kishi yanglig' balolardin xalos"* [1, 1997, 183].

"Turkigo'y balog'atosorlar bu harfning ("Zod" –I.A.) ham tarkin tutubturlar va hech nav' nazmg'a jilvai zuhur bermay o'tubturlar", "Turk kalomining malik ul-kalomlari bu harfda ("To" – I.A.) dag'i takallum tuzmaydurlar va kalima nazm haysiyatidin varaqda ko'rguzmaydurlar", "Bu harf ("Zo"– I.A.) hamul jumladindurkim, turk tilining shirinash'or va shakarguftorlari dushvorlig'i jihatidin mutlaq taarruz qilmaydurlar", deya turkiy she'riyatda qo'llanilmagan yoki kam ishlatilgan ayrim harflar raviy vazifasini bajarib kelgan, Husayniy she'riyatidagi yangicha qofiya tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Ungacha qo'llanilmagan qofiyalarga urg'u beradi. Xususan, Husayniyning "nihon" radifli 3 ta g'azal yozgani va ularning har biri yuksak mahorat namunasi ekanligini ta'kidlaydi: *"Manzurning xat va zulfida bu uch matladurkim, bir-biriga javob voqe' bo'lubtur. Qofiya va radifi ul hazratning bu fanda mujtahid tab'ining ixtiroidur"* [1, 1997, 194].

Matlalar bilan tanishganimizda, haqiqatan ham, betakror va go'zal ixtironing guvohi bo'lamiz:

*Zulfi ichra bel, xat ichra la'li xandondur nihon,
O'ylakim, jondur nihon, ham rishtai jondur nihon* [1, 1997, 195].

Baytda zulf, bel, xat, lab (la'l) an'anaviy obrazlari ishtirok etgan. Bular yangi obrazlar emas. Ammo ularga yondashuvning o'zgachaligi obrazlarning yangilanishiga xizmat qilgan. Ijodkorning butun diqqati bel va labga qaratilgan. Labning jonga, belning ingichkaligi ipga qiyoslanishi an'ana. Ammo shoir mavjud fikrni o'zgacha ifoda yo'sinini qo'llash orqali yangilaydi. O'quvchini hayratlantira oladi. Buni tanosub, tashbeh, laff va nashr san'atlarini qo'llash orqali amalga oshiradi. Labning jonga, belning ingichkaligini jonning tomiriga o'xshatar ekan, kitobat san'atini ham qo'llaydi. Ya'ni "jon" so'zining yozilishida, o'rtada keluvchi "alif" ham nazarda tutiladiki, bu Husayniyning so'zlarni tanlash, anglash va qo'llash mahoratining noyobligidan, betakrorligidan dalolatdir.

Ayniqsa, "nav'" so'zi radif sifatida qo'llanilgan g'azalini Navoiy yuqori baholaydi: *"Bu qofiya va radif hazrat Sulton Sohibqironning ixtiroidurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:*

*Ohkim, hijron o'tidin kuydi jonim o'zga nav',
O'rtadi ofoqni o'tluq fig'onim o'zga nav'"* [1, 1997, 184].

Bu kabi misollar Husayniy she'riyatda kashfiyotlar qilish yo'lidan borganligini ko'rsatadi. U o'zining mazkur yo'li bilan adabiy muhitdagi ijodkorlarga ibrat bo'ladi. Navoiy uning bu xizmatini alohida ta'kidlaydi: *"Bu she'rning qofiyasidin so'ngra "atv vovin" kalimaning asli harfi o'rnig'a tutulub g'arib ixtiro' qilibdur:*

*Ey jafu tig'i, kelib majruh ko'ksumni yoru,
Qo'lyalang aylab solib haryon ichimni axtaru"* [1, 1997, 196].

Navoiy Husayniyning mazkur o'ziga xosligini "ixtiro" deb ataydi. Keyinchalik o'zi ham undan ta'sirlanib, xuddi shunday usulni o'z ijodida qo'llab bir g'azal yozadi. Mazkur g'azal shoirning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. U saboga murojaat etib, sargardon, ovvora-yu sarson ko'nglini topishni iltijo etayotgan oshiq tilidan yozilgan quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Ey sabo, ovvora ko'nglum istayu har yon boru,

Vodiy-u tog'-u biyobonlarni bir-bir axtaru [5, 1989, 192].

Bu holat Navoiy va Husayniyning ijod olamida bir-biri bilan qanchalik mushtarak ekanligini, bir-biridan ilhomlanib turkiy adabiyot takomiliga hissa qo'shganini ko'rsatadi.

Navoiy Husayniy she'riyatiga baho berar ekan, badiiy san'atlardan foydalanish mahoratiga ham alohida e'tibor qaratadi. Husayniy she'riyatida ko'plab badiiy san'atlardan mahorat va o'rnida foydalanganini misollar bilan dalillab beradi. Mukarrar, tashbeh, takrir, tamsil, tajohil ul-orifona, tajnis kabi san'atlar qo'llanilgan nodir matlallarni tahlil etadi va yuqori baholaydi. Husayniy ijodida qo'llanilgan so'zlarning rang-barang jilolarini kashf etadi.

Navoiy ma'lumotlaridan Husayniyning badiiy san'at qo'llash uslubi o'ziga xosliklarga ega ekanligini anglaymiz. Shoir ulardan foydalanib, noyob va yangi obrazlar yaratadi. Mavjud obrazlarga o'zgacha nuqtayi nazardan qarab, yangiliklar topadi. O'zga shoirlarda uchramagan topilmalarni kashf etadi. Mazmunni o'zgacha mantiq va rakurs asosida ifodalaydi. Oddiy an'anaviy qoliplardan foydalanmaydi. Jumladan, bir g'azalida qo'llangan tajnisni talqin etar ekan, Navoiy o'z hayratini izhor etib, shoir iste'dodiga tan beradi: "Yuz davrida "qiron" ta'rifida... voqe' bo'lubtur, tajnis rioyat qililibdurkim, bu nav' shirin va rangin va xush tartib oz voqe' bo'lmish bo'lg'ay:

Ul quyoshkim, oy yuzining davrida qilmish qiron,

Barcha mahvashlar arosida erur sohibqiron" [1, 1997, 192].

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda mahbuba yuzi ba'zan quyoshga, ba'zan oyga qiyosan ta'riflanadi. Husayniy esa, mazkur baytda adabiyotni ilm-fan bilan uyg'unlashtiradi. O'zining ilmiy bilimlarini adabiyot bilan birlashtiradi. Va chuqur mantiqqa ega, yangicha tasvirni yaratadi. Lug'atlarda "qiron" so'zi "ikki sayyora yulduzning bir burjda to'qnashuvi, birlashish, yaqinlashish, to'qnashish" ma'nolarida izohlanadi. Ya'ni birinchi misrada mahbuba yuzi ham quyosh, ham oyning go'zalligini o'zida mavjlantirganini va buning sababini shoir tabiiy hodisa bilan izohlaganini ko'ramiz. Ikkinchi misrada esa shoir obrazga yanada yangicha yondashadi. Yangilikni "sohibqiron" so'zi orqali namoyon etadi. Lug'atlarda uning ma'nosi "jahongir va ilmi nujumda ikki sayyora bir-biriga to'qnashgan paytda tug'ilgan bola" ma'nolarida izohlangan. Shoir "Qiron va sohibqiron" so'zlari bilan tajnis san'atini yaratib, majoziy ma'noga chuqur irfoniy ma'noni ham singdirib ifodalashga erishadi. Navoiy bejiz o'z fikrida baytning ranginligiga e'tibor qaratmagan. Rangin so'zi "tovlanib turuvchi, rangdor" ma'nolariga ega. Bu faqat, she'rdagi shakliy go'zallik emas, balki ma'no bilan bog'liq rangdorlikni ham ifodalashga xizmat qilgan. Haqiqatan ham, Husayniy she'riyatida majoz va haqiqat hamisha uyg'un tasvirlangan. Bu borada Navoiy ham quyidagi bayt tahlili jarayonida e'tiborli fikrlarni bayon etgan: "Ul olam ahli sultoni himmati qoshida baski sultonlig'i muhaqqir ko'rinur va faqrni filhaqiqat saltanatqa tarjih qilur. Bu baytdakim, haqiqat ma'nisi majoz suratida ado topibdur. Umid ulkim, ul hazratning tariyqida ham necha majoz bo'lsa haqiqatda mubaddal bo'lg'ay va majoz ahlig'a ehson va haqiqat ahlig'a mustahsan voqe' bo'lubtur:

*Kim gadoying bo'lsa olamdin kechib, ey dilrabo,
Faqr ahli ichra ul sultoni olamdur bukun" [1, 1997, 206].*

Husayniy mazmunni betakror shaklda va chuqur mantiq bilan ifodalashga alohida e'tibor qaratgan. Bu maqsad yo'lida butun iste'dodini ishga soladi. Turli usullardan foydalanadi. Navoiy quyidagi baytda tashbeh qo'llanganini va u tajohul ul-orif san'ati bilan muzayyan tarzda voqelanganini ta'kidlaydi: *"Manzurning labi tabassumini va o'zini qonalg'on dog'ini g'unchai xandon va lolai No'mong'a tashbih qilibdur va ma'nisi she'r sanoeidin "tajohul ul-orif" uslubida xush voqe' bo'lubtur:*

*Ayladi la'li tabassum, g'unchai xandon emas,
Dog'ini ko'nglum qonatti, lolai no'mon emas" [1, 1997, 183].*

Navoiy quyidagi baytni keltirib, unda tarjeh san'ati qo'llanganini ta'kidlaydi: *"Nargis ko'zlik va g'uncha og'izlig' guluzori ko'zu og'zin nargis bila g'unchag'a tarjeh qilg'oni ajib nav' voqe' bo'lubtur:*

*Nargis olmas yerdin ul fatton ko'zung ollida ko'z,
Og'zing ollida tutulmish g'unchaning og'zida so'z" [1, 1997, 182].*

Tarjeh san'ati juda noyob san'atlardan bo'lgan. Atoulloh Husayniy talqinicha, tarjeh, *"... bir nav' kalomni boshlag'anda bir nimaga nazar solurlarkim, ani keltirmak bila ul ma'noni zikr qilmoq mumkin bo'lur va ul nima topilg'ach, ul ma'noni zikr qilurlar va o'shal tariqa ani yana istagancha takrorlarlar. Bu arab fusahosining urfidur" [9, 1981, 174].*

Ko'rinadiki, mazkur san'at ancha murakkab va turkiy adabiyotda noyob hisoblangan. Atoulloh ham buning arab adabiyotiga xos, arab shoirlari tomonidan ko'p ishlatilgan badiiy san'at ekanligini ta'kidlaydi. Turkiy she'riyatda esa tarjeh boshqacha xarkterga ega, tarje'band xususiyati bilan aloqadorlikda talqin etiladi. Ammo ko'rinadiki, Husayniy mazkur noyob san'atning go'zal namunasini yaratib, turkiy she'riyat balog'atiga munosib hissa qo'shadi.

Navoiy Husayniy mahoratini izohlar ekan, ma'no nodirligiga ham e'tibor qaratadi: *"...manzurni ko'rmak muyassar bo'lmasa, anga nazar tushgon yerni ko'rmak orzu qilibdur. Bu nodir ma'nidur:*

*Bir nafas ul oyni ko'rmak chun emasdur dastras,
Oni ko'rgan yerin, vah, borib ko'royin bir nafas" [1, 1997, 182].*

Navoiy Husayniy ijodidagi noyob topilmalarga to'xtaladi. Jumladan, quyidagi bayt talqini ham xuddi shunday nodirlikni namoyon etadi: *"Gulro'yning g'unchadek og'zi va ruxsori uzra ko'rganin zarra xurshed yuzida paydo bo'lg'onga xo'b tashbih qilibdur:*

*O'ylakim, xurshedi tobi zarrani paydo qilur,
G'uncha og'zing sirrini ham gul yuzung go'yo qilur" [1, 1997, 180].*

Navoiy Husayniyning she'riyatni nozik anglashini, adabiy jarayonni sinchkovlik bilan kuzatib, tanqidiy va ijobiy fikrlarini samimiy bayon etganini ta'kidlaydi. Husayniy shoir sifatida she'r badiiyatiga juda e'tiborli bo'lishi bilan birga, har bir asarda aytilgan fikrning mantiqiy mukammal bo'lishini ham nazardan qochirmagan. Aslo ma'no va mantiqni san'atpardoqlik soyasida qoldirmagan. Buni Xusrav Dehlaviyning bir g'azaliga munosabati yaqqol ko'rsatadi. Xusrav, go'zal mahbuba yomg'irda sirg'alib yiqilayotganda, yomg'ir torlarini ushlab, nozikligidan yiqilmay qolganini tasvirlaydi. Husayniy buni eshitib, mantiqqa zid ekanligini sezadi. Ammo Navoiy xotirlashicha, she'rga munosabatini darrov emas, balki do'stini ayab, boshqalar oldida noqulay vaziyatga tushmasligi uchun, ertasiga, o'shandayam, shoir o'zi sababini so'raganda,

nimtabassum va iltifot bilan mantiq buzulganini, yomg'ir torining pastga qarab tushayotgani sababli u mahbubani yiqilishdan saqlayolmasligini so'zlaydi va noyob hamda mantiqqa asoslangan, mahorat bilan aytilgan bir baytini keltiradi. Bayt ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Husayniy devonidagi g'azallarning barchasi shu vaznda. Bu, mazkur bayt Husayniy qalamiga mansub, degan xulosaga kelishimizga asos beradi:

*Za'fdin kulbamd qo'pmoq istasam aylar madad,
Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a [1, 1997, 208].*

Shu voqea bayonida, uning insonlar bilan muomala munosabatda nihoyatda iltifotli va madaniyatli bo'lganini kuzatamiz. Bu voqea Husayniyning shoirlik iste'dodi, did va tab'ining yuksakligi hamda axloqiy komilligidan dalolat beradi. Navoiy shu kabi ayrim voqealar tafsiloti orqali Husayniyning insoniylik fazilatlarini ham ochib berishga erishadi.

Ko'rinadiki, Navoiy Husayniy she'riyatini yuksak qadrlagan. Uni, she'riyatni nozik idrok etuvchi adabiyotshunos olim sifatida, obyektiv baholagan. Uning fikr-mulohazalari bilan tanishib, Husayniy faqat podshoh bo'lgani uchungina, to'liq bir majlisni unga bag'ishlamaganini anglaymiz. U shoir sifatida ham shunga munosib mahoratga, ijodiy mukammallikka egaligini his etamiz. Husayniy she'riyati va iste'dodi Lutfiy, Navoiy, Jomiylardan qolishmasligiga amin bo'lamiz. Bu holat o'zbek adabiyotshunosligi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Kelajakda uning badiiy mahoratini maxsus o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – б. 281.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. 3-том. – Т.: Фан, 1988. – б. 613.
3. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 1-том. – Т.: Фан, 1987. – б. 722.
4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадойиъ ул-васат. МАТ. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989. – б. 540.
5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. МАТ. 5-том. – Тошкент: Фан, 1989. – б. 558.
6. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – б. 350.
7. Adizova, I. (2021). An overview of cyber-crimes and its impact on economy uvaysi's role in EPIC writing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2293-2302..
8. Adizova, I. (2019). THE GENRE OF MUSALLAS IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 648-651.
9. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – б. 395.
10. Девони Султон Ҳусайн Бойқаро. Йиғма-қиёсий матн. Нашрга тайёрловчи Ҳуснигул Жўраева. – Т.: Мумтоз сўз, 2016. – б. 168.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.
12. Шамсиев П., Ибрагимов С. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – б. 782.
13. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. – Т.: Академнашр, 2013. – б. 406.
14. Jumaxo'ja, N. (2019). Talqinlarda shoirona shuur va ilmiy tafakkur. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).
15. Jumaxo'ja, N. (2024). Navoiyning musalsal g'azallar yaratish mahorati. *Alisher Navo'i and 21 st century*, 1(1).

OLTI DOSTONDA ODAM ATO TIMSOLI TALQINI

Shodmonov Nafas Namozovich,
filologiya fanlari doktori, professor, "Turon" universiteti,
nafasxonshodmonov@gmail.com

Shodmonov G'iyosiddin Nafasovich,
filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori, dotsent, Qarshi davlat universiteti,
shodmonov786@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YAFZ6461

Annotatsiya. Maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida keng qo'llanilgan Odam Ato, Havvo va ularning farzandlari timsollari bir guruh rus shoirlari tomonidan XX asrning boshida tatbiq etilgan odamiyot (adamizm) ijodiy yo'nalishi asosida tadqiq qilingan. Sho'rolar davrida odamiyot yo'nalishi inkor etilgan va taqiqlangan bo'lsa-da, jahon adabiyoti va adabiyotshunosligida u rivojlantirilganiga diqqat qaratilgan. Yo'nalishning asosiy xususiyati insonning idealga qaytish potensialini tushunishga intilish va talqin etish ekani ko'rsatib berilgan.

Navoiy asarlarida komil inson g'oyasining ilgari surilishida Odam Ato timsolidan unumli foydalanilgani tahlilga tortilgan. Navoiy ijodida odamiyotning asosiy xususiyatlaridan biri Odam Ato qiyofasining o'ziga xoslik va poklik ramzi sifatida taqdim etilishi hamda poetik imkoniyatlarni kengaytirgani asoslangan. Shuningdek, Navoiy ijodi poetikaga doir har qanday nazariy qonuniyatlar talabiga javob berishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Odam Ato, odamiyot, inson mohiyati, ijodiy yo'nalish, ideal, Xamsa, g'azal, doston, komil inson g'oyasi.

THE ILLUSTRATION OF THE MAN IN SIX EPISTLES

Abstract. This article examines the symbolic representation of Adam, Eve, and their descendants in the works of the great thinker Alisher Navoi, in relation to the concept of adamism developed by a group of Russian poets in the early 20th century. Despite the suppression and eventual prohibition of adamism during the Soviet era, the study highlights its development within global literature and literary scholarship. The article demonstrates that the core principle of adamism is the interpretation of humanity's potential to return to an ideal state.

The image of Adam is analyzed as a central motif in Navoi's works, where it is utilized to promote the concept of the perfect human being. The study argues that one of the defining features of adamism in Navoi's poetry is the portrayal of Adam as a symbol of originality, purity, and an expanded poetic potential. Furthermore, the article asserts that Navoi's works conform to the theoretical principles of poetics, meeting the established criteria for literary excellence.

Keywords: Navoi, Adam, adamism, creative direction, ideal, Khamsa, ghazal, epic, concept of the perfect human.

Dunyo adabiyoti va adabiyotshunosligida akmeizm bilan birga "adamizm" degan yo'nalish ham e'tirof etilganiga yuz yildan oshgan [1910-yillarda rus she'riyatida paydo bo'lgan ijodiy yo'nalish]. Akmeistlar mavzu va tasvirlarning moddiyligi, obyektivligi, so'zning aniqligini e'tirof qiladilar. Akmeizmning o'ziga xosligi: 1) Alohida narsa va har bir hayotiy hodisaning o'z-o'zicha qadrlanishi; 2) san'atning maqsadi inson borlig'ini ulug'lash, deb bilish; 3) nomukammal hayot hodisalarining mukammal

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622